IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 21 Issue 2 May 2026

ZAMONAVIY FIQHIY MASALALARGA DOIR FATVOLAR

Muattaroy Karimova (Mirzayeva)
Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti 4-bosqich talabasi
Tel: +998945640762

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20128092

Fiqh — islom huquqining amaliy jihatlarini o‘rganuvchi fan bo‘lib, musulmonlarning kundalik hayotdagi ibodat, muomala, oila, iqtisod va ijtimoiy munosabatlarini tartibga soladi. Tarix davomida fiqhiy hukmlar Qur’on, Sunnat, ijmo’ va qiyos asosida shakllangan. Biroq zamon o‘zgarishi, texnologiya rivoji, iqtisodiy tizimlarning yangilanishi hamda global jarayonlar natijasida yangi masalalar paydo bo‘lmoqda. Bu masalalar fiqh kitoblarida to‘liq yoritilmagan bo‘lishi mumkin. Shuning uchun zamonaviy fiqhiy masalalar yuzasidan fatvo berish bugungi kun ulamolari zimmasidagi muhim vazifadir.

Zamonaviy fatvolar nafaqat diniy hukmni bayon qiladi, balki jamiyat ehtiyojlari, ilmiy yutuqlar va inson manfaatlarini ham hisobga oladi. Ushbu maqolada zamonaviy fiqhiy masalalar, fatvo chiqarish tamoyillari va bugungi kundagi dolzarb yo‘nalishlar yoritiladi.

Fatvo — bu mujtahid yoki fiqhiy masalalarda chuqur bilimga ega olim tomonidan muayyan savolga berilgan shar’iy javobdir1. Fatvo sud hukmi emas, balki yo‘l-yo‘riq va diniy maslahat hisoblanadi. Fatvo berishda quyidagilar muhim hisoblanadi: Qur’on va Sunnatga tayanish, fiqhiy qoidalar va usul ilmini bilish, zamonaviy sharoitni tushunish, masalaning mohiyatini to‘liq anglash, zarurat va manfaatni hisobga olish.

Bugungi kunda fatvo berish jarayoni individual emas, ko‘pincha fatvo hay’atlari, muftiyliklar va xalqaro fiqh akademiyalari tomonidan jamoaviy tarzda amalga oshirilmoqda. Bu esa xatolik ehtimolini kamaytiradi.

Zamonaviy fiqhiy masalalar bir necha omillar sabab yuzaga kelmoqda:

1. Texnologik rivojlanish: internet, sun’iy intellekt, kriptovalyuta, onlayn savdo, raqamli shartnomalar kabi yangiliklar yangi fiqhiy savollarni tug‘dirdi.
2. Tibbiyot taraqqiyoti: organ ko‘chirib o‘tkazish, sun’iy urug‘lantirish kabi masalalar shar’iy nuqtai nazardan baholanishi kerak bo‘ldi.
3. Iqtisodiy tizimlar o‘zgarishi: bank tizimi, sug‘urta, aksiyalar, investitsiya fondlari, sukuk kabi moliyaviy vositalar yangi fatvolarni talab qildi.
4. Global ijtimoiy munosabatlar: musulmonlarning turli mamlakatlarda ozchilik sifatida yashashi, aralash muhit, qonuniy tizimlar farqi ham fiqhiy yondashuvni kengaytirdi.

Zamonaviy moliyaviy masalalar bo‘yicha fatvolar:

1. Islomiy bank va foiz masalasi. Foiz (ribo) harom ekaniga Qur’oni Karimda qat’iy hukm qilingan. Zamonaviy bank tizimida esa foiz asosiy mexanizm hisoblanadi. Shu sababli islomiy moliya tizimi ishlab chiqildi. Fatvolarga ko‘ra: Islomiy banklarda murobaha, muzoraba, mushoraka kabi shartnomalar joiz2. Foizli kredit olish zarurat bo‘lmasa — joiz emas. Zarurat holati alohida baholanadi.
2. Kriptovalyuta — bu internet orqali ishlaydigan, markaziy bank yoki davlat nazoratiga to‘liq bog‘liq bo‘lmagan raqamli pul turidir. Kriptovaluta masalasida fatvolar turlicha; ba'zi

1 Yusuf Qarazoviy, Alfatva bayna al-indibat va at-tasayyub - Qohira: Dor al-sahva, 1988 - B. 9-27.

2 AAOIFI. Shariat standartlari: №8 Murobaha. – Manama: Dor al-Maiman for Publishing, 2015. – B. 195.

ulamolar uni yuqori xatarli deb man etadi. Ba'zilari esa shartlarga rioya qilinsa joiz deydi. Halolligi — shaffoflik, firib yo‘qligi va real qiymatga bog‘liqligiga qarab baholanadi3.

3. Onlayn savdo — bu internet orqali mahsulot yoki xizmat sotish va xarid qilish jarayonidir. Ya'ni, sotuvchi va xaridor bir joyda bo‘lmaydi, savdo veb-sayt, ilova yoki ijtimoiy tarmoq orqali amalga oshiriladi. Ko‘pchilik fatvo markazlari onlayn savdoni joiz deb hisoblaydi, agar mahsulot aniq bo‘lsa, narx ma'lum bo‘lsa, aldov bo'lmasa, yetkazib berish sharti ochiq ko‘rsatilgan bo‘lsa4.

Shuningdek zamonaviy iqtisodiy hayotda taqsit, sug‘urta va auksion savdo shakllari ham keng qo‘llaniladi. Islom fiqhida ham bu masalalar alohida o‘rganilgan bo‘lib, ularning joiz yoki nojoizligi muomala shakli va shartlariga bog‘liq holda baholanadi.

Taqsit — mahsulotni hozir olib, narxini bo‘lib-bo‘lib keyin to‘lash shaklidagi savdo turidir. Agar mahsulot narxi taqsit sababli naqd narxdan qimmatroq qilib belgilanib, shartnoma vaqtida yakuniy narx aniq ko‘rsatilsa — joiz5. Narx noaniq bo‘lsa (“naqd olsa — boshqa, taqsit olsa — boshqa”, lekin qaysi biri tanlangani aniq bo‘lmasa) — joiz emas. Kechiktirilgan to‘lov uchun ustama oldindan kelishilgan bo‘lsa — joiz; lekin muddat o‘tgach ustiga yana jarima foizi qo‘shish — ribo (sudxo‘rlik) bo‘lib, harom6.

Sug‘urta va uning fiqhiy hukmi. Sug‘urta — kutilmagan zararlarni moliyaviy qoplash tizimi. Bu 2 xil bo'ladi:

1. Tijoriy sug‘urta. Ko‘pchilik zamonaviy ulamolar nazarida, unda noaniqlik, tavakkalga o‘xshashlik (maysir), ba'zan foizli operatsiyalar mavjudligi sababli — joiz emas deb baholanadi.

2. Takaful (islomiy sug‘urta) o‘zaro yordam jamg‘armasi asosida ishlaydi. Foizsiz va shaffof tizim bo‘lsa — joiz deb qaraladi. Zarurat holatlarida (masalan, qonuniy majburiy sug‘urta) ba'zi ulamolar ehtiyoj sababli ruxsat bergan7.

Auksion va uning fiqhiy hukmi. Auksion — savdo jarayonida narxni oshirib borish orqali eng yuqori taklif egasiga sotish usuli. Fiqhda bu bay' al-muzayada deb ataladi. Ochiq narx oshirish savdosi — joiz. Rasululloh (alayhissalom) davrida ham muzayada shaklidagi savdo bo‘lgani rivoyat qilingan8. Lekin sun'iy ravishda narxni ko‘tarish uchun soxta taklif berish (najsh) — harom9. Aldov, yashirin nuqson, yolg‘on ma'lumot bilan auksion o‘tkazish — joiz emas10.

Tibbiy zamonaviy masalalar bo‘yicha ham bir nechta fatvolar bor:

1. Organ transplantatsiyasi — bu bir insonning shikastlangan yoki ishlamay qolgan a'zosini boshqa sog‘lom a'zo bilan almashtirish jarayonidir. Bu a'zo tirik donordan yoki vafot etgan shaxsdan olinishi mumkin. Ko‘plab xalqaro fiqh akademiyalari quyidagi shartlar bilan joiz degan fatvo bergan: donor roziligi bo‘lishi, savdo qilinmasligi, hayotni saqlab qolish maqsadi bo‘lishi11. Chunki Alloh taolo Moida surasi 5-oyatda shunday marhamat qiladi:

“Kim bir jonni tiriltirsa, xuddi hamma odamlarni tiriltirgandek bo‘ladi” 12**.**

3 AAOIFI. Shariat standartlari: №1 Valyutalar bilan savdo. – Manama: Dor al-Maiman for Publishing, 2015. – B. 47.

4 AAOIFI. Shariat standartlari: №38 Online moliyaviy bitimlar. – Manama: Dor al-Maiman for Publishing, 2015. – B. 943.

5 Kosoniy, Badoi as-sanoiy - Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya.- J. V - B. 187-190

6 AAOIFI. Shariat standartlari: №2 Kechiktirilgan to'lov masalalari. – Manama: Dor al-Maiman for Publishing, 2015. – B. 67.

7 AAOIFI. Shariat standartlari: №26 Takaful. – Manama: Dor al-Maiman for Publishing, 2015. – B. 673.

8 Abu Dovud, Sunan Abu Dovud.- Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 2009. - J.lll. – B. 256.

9 Imom al-Buxoriy, Al-Jome' as-Sahih.- Bayrut: Dor ibn Kasir, 2002.- J.lll.-B.73.

10 AAOIFI. Shariat standartlari: №20 Tashkil etilgan bozorlarda tovar savdosi. – Manama: Dor al-Maiman for Publishing, 2015. – B. 535.

11 https://fiqh.uz/maqola/508.

12 Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Tafsiri Hilol - Toshkent: Hilol Nashr, 2024 – B. 107.

2. Sun’iy urug‘lantirish — bu ayolning homilador bo‘lishiga yordam berish maqsadida erkak urug‘ini (sperma) tabiiy yo‘l bilan emas, balki tibbiy usul orqali ayol bachadoniga yoki tuxum hujayrasiga yetkazish jarayonidir. Fatvolarga ko‘ra: er-xotin o‘rtasida amalga oshirilsa — joiz. Begona donor aralashsa — joiz emas13.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, zamonaviy fiqhiy masalalarga doir fatvolar bugungi hayotning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Texnologiya, tibbiyot, iqtisod va ijtimoiy munosabatlar rivojlangan sari yangi savollar paydo bo‘lmoqda. Bu savollarga javob berishda fiqh ilmining asosiy manbalari bilan bir qatorda zamon talabi va inson manfaatlari ham hisobga olinmoqda.

Fatvo — faqat hukm emas, balki mas’uliyatdir. Uni berishda chuqur ilm, keng dunyoqarash va ehtiyotkorlik zarur. Zamonaviy jamoaviy fatvo tizimi esa qarorlarning puxta va asosli chiqishiga xizmat qilmoqda. Shu jihatdan zamonaviy fatvolar islom huquqining hayotiyligi va moslashuvchanligini namoyon etadi.

13 Muslim.uz [Elektron resurs].https://muslim.uz/oz/e/post/33850-sun-iy-urug-lantirish-haqida. -2018.(murojaat qilingan sana: 06.02.2026).